

O'QUVCHI YOSHLARDA O'SIMLIK OLAMIGA NISBATAN EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISH

X.E. Ismailov, p.f.f.d. (PhD),
S.K.Qaxramonov,
ToshDAU akademik litsey ijrochi direktori.

Annotatsiya. Maqolada moddiy va ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish «tabiat-jamiat-inson» majmuasida namoyon bo'lishi bayon qilingan. O'quvchilarda ekologik ongni shakllantirish tabiatga va undagi o'simliklarga befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijod qilishga va izlanishga bog'liq.

Kalit so'zlar: muhofaza, o'simliklar, ekologiya, ekosan, tabiat va jamiyat, texnika, texnologiya, tabiiy meros, mustaqil fikr, ijod qilish, turlar.

Аннотация. Охрана растительного мира одна из важнейших задач общества. Это очевидно представлено в триаде «природа-общество-человек». в стадии рассматриваются вопросы формирования у учащихся небезразличного отношения к природе, самостоятельного мышления, творческого и научного поиска.

Ключевые слова: защита, растения, экология, экосан, общество и природа, техника, технология, природное наследие, самостоятельное мышление, творчество, виды.

Abstract. The article considers the preservation and development of the material and spiritual heritage of plants as a historical basis for the conservation of the nature-society-human complex, based on the interests of common social development. It allows student to not be indifferent to nature and home plants, to independent thinking, creativity and research.

Keywords: protecting, plants, ecology, ecosan, nature and society, technology, natural heritage, independent thought, species.

Kirish. Jahonda o'simliklarni muhofaza qilishda global hamkorlikni yo'lga qo'yish, raqamli ta'sir ko'rsatish va biotexnologik innovatsiyalarni joriy etish, botanika kolleksiyalarini yaratish sohasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. O'simliklarni saqlash global strategiyasida "dunyoda o'simliklar xilma -xilligini va yovvoyi tabiatda tarqalishini, muhofaza qilinadigan tumanlar va kolleksiyalarni hujjatlashtirish ex-situ; o'simliklar xilma -xilligi haqidagi ma'lumotlarni boshqarish uchun kompleks va interaktiv axborot tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek, xilma -xillikka ta'sir etadigan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillarni o'rganish" vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'simliklarni muhafazalash madaniyatini rivojlantirish dolzarb muammosi sanaladi.

Tadqiqotning ob'ekti va usullari. O'quvchi yoshlarda o'simliklar olamiga nisbatan ekologik ongni shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat agrar universiteti, akademik litseylarining 350 nafar o'quvchilari jalb etildi. Tadqiqot ishida o'quvchi yoshlarda o'simliklar olamiga nisbatan ekologik ongni shakllantirishga doir falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o'rganish va amaliyotga joriy etish, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil qilish, o'quvchilar bilan mavzu bo'yicha umumiy, yakka tartibda yozma va og'zaki suhbatlar uyushtirish, so'rovnomalarni o'tkazish, maxsus ishlanmalar asosida bajarilgan ishlarni tajriba-sinovdan o'tkazish, tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik jihatdan qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va munozara. O'simliklarni muhofaza qilish choralarini ko'rish ham har bir kishining muhim vazifalaridan biridir. «tabiat va jamiyat» majmuasining ichki mutanosibligi, biosfera muvozanati insonning tabiatga nisbatan ijtimoiy ekologik munosabatlarni shakllantirib, konkret axloqiy-madaniy mazmunga ega bo'lishi mumkin. Ekologik madaniyat insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida tabiatni va undagi o'simliklarni muhofaza qilishga qaratilgan nazariy-ilmiy g'oyalarning majmuasi

bo'lmasdan, ma'lum jamiyatda yashayotgan shaxslarning ruhiy xolatlari, hissiyotlari, kayfiyatlari va intilishlarini ham qamrab olib, turli darajadagi ijtimoiy ong shakllarining ekologiya maqsad-manfaatlari doirasida mushtarakligini ifodalaydi. Bunda «hissiyot insonning tabiiy borlig'i fakti bo'lmasdan, balki inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini mehnat jarayonida o'simliklarni o'z manfaatlarini asosida o'zgartirishidir». Insonlar dastlab o'z ijtimoiy faoliyatlarini o'simliklarga sof nazariy munosabat sifatida boshlagan emas. Har qanday tirik mavjudot kabi eyish, ichishdan iborat tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishdan boshlangan va qandaydir mavhum, bemaqsad faoliyatda bo'lmaganlar, aksincha, tabiatdagi o'simliklarni mehnat qurollari bilan o'zgartirib, o'z ehtiyojini qondirganlar, ijtimoiy faoliyatini tashkil qilganlar. Shunga ko'ra, jamiyat rivojlanishiga asos qilib olingan bazi insonning tabiatni o'zlashtirish uchun o'zgartirishdan iborat ishlab chiqarish munosabatlari majmuasidir.

Ekologik munosabatlar ekologik ongda o'z ifodasini topadi, lekin ekologik munosabatlarni ajratib olib, mavhum tarzda ekologik ongning asosiga qo'yish yaramaydi.(1).

Z.Abdullayev o'z tadqiqotlarida ekologik ongga ekologik ijtimoiy munosabatlarning in'ikosi sifatida baho beradi. Darhaqiqat, ekologik ongning darajalari ekologik munosabatlarning rivojlanish xususiyatlariga mos keladi. Lekin o'z navbatida ekologik munosabatlar ham ekologik ongning «moddiylashuvi jarayonidir, bu bir tomondan. Ikkinchi tomondan, ekologik ong ekologik munosabatlarning ob'ektiv va sub'ektiv mavjudlik shart-sharoitlarini ham aks ettiradi. Shuning uchun ekologik ong, ekologik munosabat bog'lanishlarini sabab-oqibat tarzida qarash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari ekologik ongning rivojlanishi ekologik munosabatning passiv in'ikosi bo'lmasdan, balki shu munosabatlarni xarakterlovchi manbaga, mexanizmga bog'liq, ya'ni ekologik ehtiyojlarga borib taqaladi. Bunda ekologik munosabatlar ekologik ehtiyojlarni qondirishning texnologik jarayoni sifatida qaralmog'i kerak. Boshqacha qilib aytganda, har qanday sabab boshlang'ich sabab emas, aksincha, hodisadir, ya'ni mehnat,

texnika, texnologiya, fan, madaniyat bilan bog'liq ekologik ehtiyojlarga borib taqaladi. Bunda ekologik munosabatlar ekologik ehtiyojlarni qondirishning texnologik jarayoni sifatida qaralmog'i kerak. Boshqacha qilib aytganda, har qanday sabab boshlang'ich sabab emas, aksincha hodisadir, ya'ni mehnat, texnika, texnologiya, fan, madaniyat bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar inson ehtiyojlarini qondirish vosita va usullarini tashkil qiladi. Zero, tabiatga va undagi o'simliklarga amaliy va nazariy munosabatlar majmuasi ma'naviy faoliyatning hamma yo'nalishlari bilan dialektik bog'langan jarayonni tashkil qiladi. (2).

Fuqarolarning o'simliklarni muhofaza qilish madaniyatini oshirish masalasi dolzarb muammolardan biridir. o'simliklarni muhofaza qilish madaniyati umuminsoniy qadriyatlarning maxsus namoyon bo'lishi sifatida tabiatga munosabatlarning yangi yo'nalishlarini vujudga keltiradi.

Tabiatni ekologik madaniyat nuqtai nazaridan o'zlashtirish hissiyotining, tafakkurining axloqiy qadriyatlarning mazmunini belgilaydigan mezonga aylanadi. Ayni paytda o'simliklardagi inqiroz va halokat oldini olishning tarixiy zaruriyati bu qarashlarni nazariy ong darajasiga ko'tardi. ayniqsa, tabiatga antropogen va texnogen ta'sirning kuchayishi bilan o'simliklarni muhofaza qilish madaniyatini rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati pishib etildi. Har qanday tarixiy davr rivojlanishining ichki harakatlantiruvchi mexanizmi tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarga bog'liq bo'lgan. Bu ziddiyatlarning hal qilish vositalari ijtimoiy ongning turli shakllari, xususan, o'simliklarni muhofaza qilish madaniyatining rivojlanishida o'z ifodasini topgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tabiatga va undagi o'simliklarga ekologik madaniy munosabat stixiyali tarzda vujudga keladigan hodisa emas. Insonning tabiatga va undagi o'simliklarga nisbatan moddiy munosabati ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida insonni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy muhit ta'siridagi ekologik merosning tarixiy rivojlanish jarayoni natijasidir.

O'simliklarni moddiy va ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish umumiy ijtimoiy rivojlanishning manfaatlaridan kelib chiqib, «tabiat-jamiyat-inson» majmuasida ularning mutanosibligini ta'minlovchi tarixiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman, madaniyat tarixining ma'naviy, moddiy merosi o'simliklarni muhofaza qilish madaniyatini rivojlanishiga asos bo'lgan. Shuning uchun ham umumiy madaniyat tarixini ekologik manfaatlar doirasida ijodiy, tanqidiy o'rganish ekologik madaniyat yo'nalishlarni metodologik asosi bo'lib hisoblanadi. (3).

O'simliklarni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirishning eng muhim vazifalaridan biri faqat o'tmishning mushtaraklashgan ekologik nazariyalarini, amaliyotni hozirgi davr nuqtai nazaridan baholashga, undan tegishli xulosalar chiqarishga o'rganishdan iborat bo'lib qolmasligi kerak.

Shuning uchun ham hozirgi tarixiy sharoitda o'tmishning nazariya darajasiga ko'tarilmagan oddiy urf-odatlar, an'analarni rag'batlantiruvchi yoki taqiqlovchi motivlarini, ularni takomillashib, hozirgi ko'rinishga aylanish qonuniyatlarini o'rganish ham juda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda o'simliklarni madaniy merosini bilish va ijodiy o'zgarishni munosabatning maxsus shakli sifatida farq qilish metodologik jihatdan zarur. bir tomondan, tabiiy merosni ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manfaatlar doirasida baholash ekologik qadriyatlardan tashqarida mustaqil bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, bu manfaatlar ekologik moddiy va ma'naviy merosni rivojlantirish ehtiyoji bilan bog'liq va uning mavjudligini ta'minlovchi motivi sifatida namoyon bo'ladi.

Umumlashtirib aytganda, tabiat va jamiyat munosabatlarini

bilish insoniyat nazariy faoliyatining fundamental muammosidir. bu muammolar jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda kun tartibiga qo'yilgan, ularni hal qilish insoniyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, manfaatlar doirasida bajarilgan. O'z navbatida bu ehtiyoj va manfaatlar tabiat va jamiyat munosabatlarining tarixiy rivojlanish xususiyatlarini belgilaydi.

Insonning ekologik faoliyatini boshqarish jarayonida ijtimoiy ong shakllarining tizimli-tuzilmaviy mushtaraklashuviga qaramasdan, har biri o'ziga xos, nisbatan mustaqil ekologik funksiyani bajaradi. shu jumladan, din-ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida, «tabiat- jamiyat-inson» munosabatlarini muvofiqlashtirishning vositasi bo'lib kelgan, ya'ni «insonning tabiatni o'zlashtirishi butun insoniyat tarixiga oid bo'lib, uning ekologik salbiy oqibatlarini hamma vaqt eslatib turgan. hatto, o'zining sodda moddiy bazasiga qaramasdan, ibtidoiy jamoa davri ham bundan mustasno emas». (5).

Shu o'rinda, ta'kidlash lozimki, bugungi kunda atrof-tabiiy muhitning holatini hamda ekologik muammolarning naqadar keskinligini inobatga olsak, ushbu sohada ham ta'lim-tarbiyani rivojlantirish mavjud muammolar echimini topishda zarurligini anglashimiz mumkin. O'simliklarga bo'lgan tarbiya bolalikdanoq singdirib borilishi kerak. Yosh avlodning sog'lom o'sib ulg'ayishi va o'zidan keyingi avlodga tabiat go'zalliklarini avaylab-asrab etkazishi uchun ularga tabiatni va undagi o'simliklarni muhofaza qilish, uning boyliklaridan tejamkorona foydalanish yo'llarini o'rgatish, tabiat bilan bog'liq har qanday ishni amalga oshirishdan oldin tabiiy muhitga zarar etkazmaydigan usullarni tanlash lozimligini o'rgatishimiz zarur. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda tabiatga va undagi o'simliklarga hurmat bilan qarash, unga nisbatan estetik hissiyotni uyg'otish tajribalari, bolalarning yoshi, bilim qo'lamini inobatga olgan holda, ularning tafakkuriga etib boradigan darajada tabiat to'g'risida, o'simliklar olami haqida, hayvonot dunyosi borasida qiziqarli va maroqli suhbatlar o'tkazish, nihollar, sabzavot, gul namunalari qanday o'tkazish, parvarishlash, borasida televideniada alohida maxsus ko'rsatuvlar uyushtirilishi ham ijobiy natijalar beradi. Katta yoshdagi kishilarning hatti-harakatlari ham yoshlar uchun o'rnatilgan, saboq bo'lishi tabiiy.

Ayni damda yoshlarimizning ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim tizimining ajralmas bo'g'ini bo'lib, uning asosiy g'oyalari o'zida mujassam etgan.

Ekologik madaniyatni oshirishda hozirgi kungacha ko'plab amaliy ishlar qilindi. ekologik ta'lim kontseptsiyasining ishlab chiqilishi, ekologiyadan davlat ta'limi standartining yaratilishi, bir qancha dasturlar, to'plamlar chiqilgani, metodik qo'llanmalarining tayyorlanganligi, bir qator respublika miqyosida o'tatilgan anjumanlar shular jumlasidandir. Bir qator muammolarni hal etish uchun o'zbekistonda yangi ijtimoiy harakatlar qatori ekologiya va salomatlik xalqaro jamg'arma "ekosan" tashkil etildi.

Bugungi kunda ekologik madaniyatni oshirish uchun o'qituvchilar va jamoatchilik tomonidan olib borilayotgan ishlar maktab va akademik litsey o'quvchilariga ekologik tarbiyani kechiktirmay singdirishga ham e'tibor qaratilishi lozim. ekologik tarbiya samaradorligini oshirish ekologik ta'limga bog'liqdir. ekologik ta'limni keng ko'lamda (bog'cha, maktab, litsey, muassasa, ko'cha-ko'y, jamoat tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida) amalga oshirish zarurdir. bu ish hozirgi kunning muhim muammolaridan biri bo'lib, kelajak sog'lom avlod uchun kafolat beradi. (4).

Tajriba-sinov va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2- tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz.

Tajriba-sinov natijasi bo'yicha o'quvchilarda ekologik madaniyatini rivojlanganlik natijalari

Guruhlar	O'quvchilar soni	Ekologik madaniyatining rivojlanganlik darajasi		
		yuqori	o'rta	past
Tajriba-sinov	176	91	68	17
Nazorat	174	55	58	61

1-tanlanma X_i : yuqori("5") o'rta("4") past("3")
(tajribaguruhi) n_i : 91 68 17
 $n=176$.

2-tanlanma Y_j : yuqori("5") o'rta("4")
past("3")
(nazorat guruhi) n_j : 55 58 61
 $m=174$

Xulosa. Daraxt ekish, qadimdan, o'zbekistonning yaxshi milliy an'anasi bo'lib kelgan. shunday ekan, an'analarimizga va tabiatga yaqin bo'lishga harakat qilaylik.

ADABIYOTLAR:

1. Toshmuxammedov B.O., Nishonboev K.N., G'afurov A.T., Prator O', Dadaev S., Tolipova J. Akademik litseylarning tabiiy fanlar yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari. Toshkent, 2005.b.84.
2. Do'stqodjaeva R.I., Ekologiya fani bo'yicha klinik farmatsiya yo'nalishi 1 kurs talabalari uchun ma'ruzalar matni. Toshkent, 2006. b.29.
3. Sheraliev A.Sh., Ismailov X.E, Botanika (akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma) ToshDAU tahririyat nashriyot bo'limi, Toshkent, 2014. b.136.
4. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. t.o'qituvchi. 1996. b.52
5. Abduraimov A., G'ofurov A., Nishonboev K., Hamidov J., Toshmuhamedov B., Eshonqulov O. Biologiya (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Toshkent, 2011. b. 232.

UO'T: 634.11

OLMANING QISHKI NAVLARIDA FENOLOGIK FAZALARNI BOSHLANISHIGA EKISH SXEMALARINI TA'SIRI

Namozov Ixtiyor Chorievich, q.x.f.d., (DSc),
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada olmani past bo'yli M-IX va o'rta bo'yli MM106 payvandtaglarida o'stirilgan intensiv bog'lardagi daraxtlarni ekish sxemalarini Fudji navini o'sishi, gul kurtaklarini yozilishiga ta'sirini aniqlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Intensiv olma bog'larini har xil ekish sxemalarida barpo etish daraxtlarda o'suv va gul kurtaklarining yozilish muddatida sezilarisiz bo'lsada, ma'lum tafovut bo'lishiga olib keladi. Bunda zichlashtirib ekilgan sxemalarda kurtaklarning uyg'onishi birmuncha erta boshlanadi. Ekish oralig'i kengaygan sari kurtaklarning yozila boshlash sanasi ikki-uch kunga kechikadi.

Kalit so'zlar: bog', payvandtag, navlar, olma, ko'chat, daraxt, ekish sxemasi, kurtak, novda, gul, meva, hosil.

Аннотация. В статье приведены результаты научных исследований по изучению влияния слаборослых вегетативно размножаемых подвоев М-IX и MM106 и схем размещения деревьев Фуджи сортов яблони на развитие вегетативных и генеративных почек. Установлено, что хотя выше указанные факторы существенного влияния на формирование и развитие вегетативных и генеративных почек не оказывают. Однако, при загущенном размещении деревьев в саду наблюдается более раннее распускание спящих почек. При разреженном же размещении деревьев весеннее распускание почек, в сравнении с загущенной посадкой задерживается на 2-3 дня.

Ключевые слова: сад, подвой, сорта, яблоня, саженцы, дерево, схема посадки, почка, ветки, цвет, плод, урожай.

Abstract. The article presents the results of scientific research on the influence of weak vegetatively propagated rootstocks M-IX and MM106 and the distribution patterns of trees of Fudji apple varieties on the development of vegetative and generative buds. It was found that although the above factors do not have a significant impact on the formation and development of vegetative and generative buds. However, with a thickened placement of trees in the garden, an earlier blooming of dormant buds is observed. With a sparse arrangement of trees, spring budding, in comparison with a thickened planting, is delayed by 2-3 days.

Keywords: garden, stock, varieties, apple tree, seedlings, tree, planting scheme, bud, branches, flower, fruit, harvest.

Kirish. Ma'lumki, har qanday qishloq xo'jaligi o'simliklarining hosildorligi bevosita ekish sxemasiga bog'liq bo'lib qolaveradi. Bu masala ayniqsa bugungi kunda respublikada barpo etilayotgan intensiv olma bog'larda yanada chuqurlashmoqda. Shu bois intensiv olma bog'larida daraxtlarni joylashtirish sxemalarini optimallashtirish navlarning potentsial mahsuldorligidan to'la

foydalanish va yuqori sifatli mahsulot yetishtirishga imkon beradi.

M.P. Tarasenko [150; 9–15-b.] va boshqa ko'plab olimlarning ma'lumotlari bilan ham tasdiqlanadi, uning maxsus tajribalarida XVI payvandtag tipida o'suv davri ona ko'chatlarda juda kech boshlangan bo'lsada, bog' sharoitlarida unga payvand qilingan navlarda o'suv davrining erta boshlanishi qayd etilgan.